# Ochiq ma’ruza darsi

Nazariy va qurilish mexanikasi kafedrasining katta oʻqituvchisi Toshmatov Elyor Sobirovichning 2019 yil 10 aprel B-325 auditoriasida Kaspiy ta’lim Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish yoʻnalishi 2 bosqich 12 gurux talabalariga oʻtkazilgan “Materiallar qarshiligi” fanida “Balkalarning egilish xaqidagi umumiy muloxazalar. Sof egilish, kundalang egilish, tekis egilish. Tayanch reaksiyalarini topish” mavzusidagi ochiq ma’ruza darsida Balkalarning egilish xaqidagi umumiy muloxazalar, ularni hisoblashning amaliyotda keng tarqalgan usullari va ularning qoʻllanilishi tartibi koʻrsatib berildi. Bunda ma’ruzachi egilishga ishlayotgan balkani aniq koʻpriklar misolida tushuntirib berdi, ularning afzallik va kamchiliklariga urgʻu berib oʻtdi. Ma’ruza davomida aytilgan fikrlar aniq misollar bilan toʻldirib borildi. Ma’ruza vaqtida matnga muvofiq slaydlar koʻrsatib borildi, talabalarga tarqatma materiallar berildi va pedagogik texnologiyalardan ham foydalanildi. Axborot texnologiyalaridan foydalanib “Epyuгы” nomli dastur yordamida balkaning egilishiga misol yechildi. Ma’ruza jarayoni oʻqituvchi va talabalar oʻrtasidagi faollik bilan olib borildi. Ma’ruzachi talabalarning barcha savollariga qisqa, aniq va tushunarli javoblar berdi. Mashgʻulot qisqa blis-soʻrovi va assesment baxolash orqali talabalar bilimini baholash bilan yakunlandi. Ochiq ma’ruza darsda TAQI dotsenti S.A.Abdukadыrov va institutimizning professor-oʻqituvchilari ishtirok etishdi.